

**Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun**  
**- sonli**

**SHARTNOMA**

**2022 y «23»06.**

**2022-144-4-68-XT-son**

**Yakkabog' tumani**

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan **Yakkabog' tuman Xalq ta'limi bo'limi** tomonidan Nizomga asosan **U.Nurmatov** bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va qonunosti hujjatlari asosida faoliyat yurituvchi " " " "

**WORLD CLASS PROJECT" XUSUSIY KORXONASI**

**(to'liq nomi va tashkiliy-huquqiy shakli)**

(keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan **Nizom** asosida ish yurituvchi "Ish bajaruvchi" tarafning **A.TURAYEV** ikkinchi tomondan quyida

**(rahbarining lavozimi va F.I.SH.)**

ko'rsatilgan obyekt bo'yicha texnik ko'rigidan o'tkazish va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash bo'yicha Shartnoma tuzdilar:

**I.SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Obyekti loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha majlis o'tkazilgan (bayonnoma tuzilgan) sanadagi Obyekti loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha tuzilgan majlis bayonnomasi raqami-sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan "Loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanayotgan **37-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI**

**obyekt nomi**

Obyekti loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va tayyorlashni Bajaruvchi o'z zimmasiga oladi.

1.2. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini amaldagi tartib-qoidalar va me'yorlarga rioya etgan holda ishlab chiqadi.

1.4. Bajariladigan ishlar tartibi, amalga oshirish muddatlari quyidagi tartibda:

- bajariladigan ishlar muddatining kalendar rejasi - 1-ilovaga muvofiq;

- asoslashtirilgan kelishuv bayonnomasi 2- ilovaga muvofiq;

- loyiha ishlarini bajarish smetasi – 3 ilova muvofiq belgilanadi va ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.5. Bajaruvchi Shartnoma bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqadi. Uchinchi shaxsni yollagan holda belgilangan tartibda Buyurtmachi yoki Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlarini davlat ekspertizasidan o'tkazadi.

1.6. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari bo'yicha davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertiza xulosasini olgandan so'ng 10 kun mobaynida 3 (uch) nusxada mazkur loyiha va qidiruv ishlari xujjatlarini Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

**II.TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

**2.1. Buyurtmachining majburiyatlari:**

2.2. Bajaruvchi Shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish.

Кўриб чиққан юрист: Almardonov Jaloliddin Tulqinovich. Хужжат рақами:УН3263115140

2.3. Tayyor bo'lgan loyiha-smeta amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash majburiyatini oladi.

#### **2.4. Bajaruvchining majburiyatlari:**

2.5. Bajaruvchi ishlarni texnik topshiriq va kelishilgan grafik asosida o'z vaqtida sifatli bajarishni, Buyurtmachi bilan bajarilgan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishish;

2.6. Obyektning qurilish-montaj jarayonida mualliflik nazoratini olib borish ishlari amalga oshirishi shart;

2.7. Ushbu Shartnoma bo'yicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, bir haftadan oshmagan muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajarish majburiyatini oladi.

### **III. ISHLARNING TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI**

3.1. Quyidagi shartlarning to'liq amalga oshirilganda taraflar imzolangan Shartnoma majburiyatlarning bajarilishi boshlangan hisoblanadi.

3.2. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan 3 nusxada loyiha-smeta hujjatlar to'plamini topshiradi.

3.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ruyxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

3.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish bir-birini xabardor qilishi va 15 ish kunida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtalishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

3.5. Tomonlardan biri mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

### **IV. SHARTNOMA BAHOSI VA TO'LOV TARTIBI**

4.1. Shartnoma bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning bahosi qo'shimcha qiymat solig'i bilan (Ekspertiza, mualliflik nazorati uz ichiga olgan xolda)— Shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning bahosi miqdori **9 000 000 (To'qqiz million)** so'mni tashkil etadi.

4.2. Mazkur Obyekt bo'yicha to'lov MANZILIY dasturga tasdiqlangandan keyin moliyalashtirish manbai aniqlanib, mablag' ajratilgandan so'ng to'lov amalga oshiriladi.

4.3. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda "Buyurtmachi" to'lovni amalga oshira olmaydi.

4.4. "Buyurtmachi" Shartnoma imzolangandan so'ng Shartnoma bahosining 30 % miqdorida bo'nak (avans) to'lovini amalga oshiradi.

4.5. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi. Quyidagi hollarda:  
-ishlar qiymati ko'paytirishga engib bo'lmaydigan ya'ni (fors-major) holatlari sabab bo'lganda va ishlar Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni taraflar bajarmaganda mazkur Shartnomaning amaldagi talablari va O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiqligi yuzasidan javob beradi.

5.2. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklar uchun qurilish loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlangunga qadar javob beradi. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqadi.

5.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

5.4. Mazkur Shartnoma bo'yicha nizo kelib chiqqan hollarda, tomonlar kelishuviga erishmagan taqdirda, qonunlarda belgilangan tartibda va iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan haqi kechiktirilgan har bir kun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,01 foizi miqdorida Bajaruvchiga penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining 10 foizidan oshmasligi lozim.

5.6. Bajaruvchi tomonidan smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

5.7. Shartnoma «Bajaruvchi»ning tashabbusi bilan bekor qilinganda, Shartnoma bekor qilingunga qadar bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag' «Bajaruvchi»ga qaytarilmaydi.

5.8. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilish taklifini bildirgan taraf 10 kun oldin muddatda ikkinchi tarafni xabardor qilishi lozim. Bunda taraflar o'rtasida haqiqatda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha belgilangan hujjatlar asosida to'liq hisob-kitob qilingan holda amalga oshiriladi.

Penya to'lash

Bajaruvchining bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachiga qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmasa, Buyurtmachi ushbu mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

Mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## VI. FORS-MAJOR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (engib bo'lmas kuch), epidemiya va h.k. oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan

birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar bo'lmaydi.

6.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

6.3. Muzokoralar olib borish yo'li bilan ziddiyatlarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur Shartnomaning tuzilishi, uning shartlarini o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar **Yakkabog' tuman iqtisodiy sudi** da ko'rib chiqiladi.

## VII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA UNGA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

7.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

7.2. Ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va shartnoma amal qilish muddati **2022 yil 31-dekabr**ga qadar hisoblanadi.

7.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

7.4. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, yordamchi pudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

7.5. Ushbu Shartnoma bo'yicha to'lov MANZILIY dasturiga kiritilib, ushbu Obyekt bo'yicha hisob raqami ochilganidan keyin, hisob raqamiga mablag' ajratilgandan so'ng to'lovlar amalga oshiriladi.

7.6. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydobo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

7.7. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

7.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

7.9. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi.

7.10. Mazkur shartnoma tegishli g'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng huquqiy kuchga kiradi.

1 - ILOVA

**OBYEKT QURILISHINI MOLIYALASHTIRISH GRAFIGI**

**Yakkabog' tumanidagi 37 -maktabni loyiha ishlari**

(ob'ekt nomi)

2022 yil "23" UJONH dagi  
2022-144-4-68 sonli Shartnomaga 2-ilova  
87

## Shartnoma bahosini kelishuvi

### BA Y O N N O M A S I

Biz, quyida imzo qo'yuvchilar 37-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI  
obyekt nomi

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha 2022 yil "23"  
UJONH dagi 144-4-68 sonli Shartnoma bahosi qo'shimcha qiymat solig'i bilan  
Shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning bahosi miqdori 9 000 000 (To'qqiz  
million) so'mni tashkil etadi.

Ushbu bayonnoma "Buyurtmachi" va "Pudratchii" o'rtasida o'zaro hisob-  
kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

### TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

#### "Buyurtmachi"

Yakkabog' tuman xalq ta'limi bo'limi

Manzil: Yakkabog' tuman A.Temur

ko'chasi

Hisob-kitob raqami

401722860102507092100075002

"Toshkent MB BBXKKM"

STIR: 206940349

MFO: 00014

OKONX: 92310

telefon +998(75)5824973

G'azna x/r: 23402000300100001010

STIR: 201122989

Buyurtmach

M.U



J.Nurmatov

(F.I.SH.)

#### "Bajaruvchi"

Korxonasi nomi: "WORLD CLASS  
PROJECT" XUSUSIY KORXONASI

Manzili: Qarshi shahri, G'uzor ko'chasi, 6-  
uy "UzCKB" ATB bosh ofisi

X/r: 20208000705235752001

STIR: 307453490

MFO: 00440

Tel: +998 91-960-58-02

Bajaruvchi



A.Turayev

(F.I.SH.)

3305488



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"WORLD CLASS PROJECT" Xususiy korxonona

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"WORLD CLASS PROJECT" XK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

09.06.2020

857007

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

307453490

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Xususiy korxonona

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, AMIR TEMUR KO'CHASI, 147-UY,  
44-XONADON,

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, DAVLAT  
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

**1. Loyihaning turi:**

Xo'jalik shartnomasi;

**2. Loyihaning nomi:**

Yakkabog' tuman Xalq ta'limi bo'limi va **“WORLD CLASS PROJECT”** xususiy korxonasi o'rtasida tuzilgan 9 000 000 (To'qqiz million) so'mlik Xo'jalik shartnomasi;

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:**


Yakkabog' tuman Xalq ta'limi bo'limi tomonidan markazga 13 iyun 2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Yakkabog' tuman yuridik xizmat

ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:

“16.06.2022 y”



J.T.Almardonov

Q'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QASHQADARYO VILOYATI  
QARSHI SHAHAR  
"MARJONA  
UNIVERSAL FAYZ"  
XUSUSIY KORXONASI  
2022 yil 20. IYUN  
№ 20  
O'zbekiston ko'chasi 10-uy 1-k.  
Pochta indeks: 7300

10-iyun kuni tanlov asosida bulib utgan Lot №93254 raqamli Yakkabog tumani 37-umumiy urta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash uchun loyiha va смета hujjatlarini tayirlash ishlarini yutgan edik. Ayrim sabablarga kura (iyul uzoqligi sababli) ishni bajarolmasligimizni ma'lum qilamiz.

"МАРЖОНА УНИВЕРСАЛ ФАЙЗ"  
х.к директори



*M. Saidov*  
M. Saidov